

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

YOSHLARNING TA'LIM TARBIYASI VA VATANNI SEVISH BORASIDA QARASHLARIDA JADID NAMOYONDALARINING ILMIY PUBLISISTIKASI

Rahmonov Abdujabbor Ibragim o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti

4 bosqich talabasi

Anotatsiya

Ushbu tezisda yoshlarning vatanni sevish uni ardoqlashh ularning ta’limtarbiyasida muhum elementlar, ilmiy saviyali kuchli kadrlar qilib tarbiyalash vatanga xizmat qiladigan inson qilb tarbiyalashda jadid namayondalarining fikr mulohazalari aks etgan.

Kalit so’zlar: Jadidlar, Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavarqori Abdurashidxonov, Salim Tillaxonov, Turkiston, Vatan, yoshlar, Ufa, Turkiya.

Ma’lumki, o’z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o’lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o’z oldiga maqsad qilib qo’yan jadidlar harakati o’lka xalqlari tarixida muhim ro’l o’ynagan. Aslida jaded so’zi (arabcha “jadid”-yangi) yangilanish ma’nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat, shu oqim tarafdarlarining umumiyl nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliyozodlik harakatining milliy mafkurasi, o’lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g’oyasi sifatida shakllandı.

Jadidlar ta’limoti – o’z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyarvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o’z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo’lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo’lishlarini ta’kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo’ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o’quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o’quvchilarni xabardor qilgan va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi¹.

Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o'rzu qilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallahga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lif va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallahslari kerakligini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo labaratoriyaning borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyojotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi. Turkistonagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lida jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyat

¹ Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Xayriya” nomli yordam tashkiloti “ilk maktablarni bitirgandan so’ngra Turkiya, O’rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi”². Jadidlar tomonidan ayniqsa yosh avlodini o‘qitish ishlari, xususan yoshlarni horij mamlakatlarida o‘qitib, utrli mutaxassislarni tayyorlash ishlariga katta e’tibor qaratilib, bir qator xayriya tashkilotlari va jamg‘armalari tashkil etildi. Ma’rifatparvar ziyolilardan Salim Tillaxonov shunday yozadi: “1922-yil o‘qish masalasida Toshkentda tashkil etilgan “Ko‘mak” uyushmasining tashabbusi, Turkiston hukumatining ko‘magi, shuningdek, Buxoro jumhuriyatining g‘ayrati bilan Turkiston va Buxoro jumhuriyatidan 70 taga yaqin o‘quvchilarni Germaniyaga yuborgan edi. Germaniyada Rossiyadan 10 000, Yaponiyadan 4000, Turkiyadan 3000, Xitoydan 4000 talaba bor. Biroq 12 millionli Turkistondan 70 tagina talabaning bo‘lishi hech bizni qanoatlantira olmaydi. Harakat qilib, kelgusi yillarda Yevropaning turli burchaklariga 70 minglab talabalarni yuborishimiz kerak. Biz keljakda doktorlarni, adiblarni, faylasuflarni va yo‘lboshchilarimizni o‘z ichimizdan chiqarishimiz lozim”, - deb barcha e’tiborni ilm olishga qaratib, keljakda yetuk kadrlar yetishib chiqishini xohlaydi³. Ramziy publisistikasidagi yetakchi mavzularni ham shu manoda ta’lim-tarbiya, qishloq va bolalar turmushi, iqtisidiy muammolar tashkil etadi. Ramziyning matbuot va maorif sohasidagi ko‘p yillik tajribasi va to’plangan ma’lumotlari ularga asos bo’lib xizmat qilgan. Shu boisdan ham uning publisistikasi maqolalari aniq fakt va raqamlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Adibning “Xotin qizlarimiz erkli turmushga chiqsunlar”, “Chin ta’lim-tarbiya egalari etishadir” maqolalarida asosan yoshtar to’g’risida fikr yuritilgan, tarbiyachilarning ma’suliyatli vazifasi ta’kidlana turib, bolalarning o‘qishi va bilim olishiga mon’elik qiluvchi illatlarni ochishga harakat qilingan. Xususan, muallifning maorif va madaniyat sohasidagi o’zgarishlarga oid qarashlari ahamiyatga molik. U qishloq bolalarining maktablarga kam (shaharlik bolalarning 51,3 foizi bo’lgani holda, qishloq yoshlari 9,1 foiz) jalb qilinishi sabablari, ijtimypi ahvol va iqtisodiy qiyinchiliklar to’g’risida tashvishlanib yozadi: “Batrak-kambag’allarning bolalari yoshlikdan otalari yonida dastyorlik qilib, ularning ishlariga boqishib ketadilar. Yoxud oyoq kiyim, ust kiyim bo’limg’onidan, mакtabга yozilg’ан bo’lsalar ham qatnolmay qoladilar”. Muallif bu kamchiliklarni

² M. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. -B.108-109.

³ Mingnarov A. Madaniy jarayonlar va ta’lim masalalarining Turkiston milliy matbuotida yoritilishi. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. - B. 119-124.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bartaraf etish uchun ularga moddiy yordam ko'rsatish, mahalliy buydjet malum miqdorda (bir yilga 150 ming so'm) mablag' ajratilishini taklif etadi. Shuningdek, maqolada uzoqdan qatnaydigan bolalarni aravalarda keltirib, qaytib olib borib qo'yish, internetlar yonida yotoqxonalar barpo qilish kabi o'rinni taqkliflar ham ilgari surilgan. Publisist qator dalil va raqamlar asosida millat bolalari ma'naviyatidagi kemtiklikni oydinlashtirish barobarida Xalq maorifi komissari sifatida amaliy yordam ham bera olgan. Bu bilan o'z qarashlarining amaliy mohiyatini kuchaytirishga erishgani adib publisistikasining xalqchilligini ta'minlovchi dolzarb xususiyatga ayalangan⁴. O'zining ta'limiylah ahloqiy asarlari bilan o'zbek publisistikasining ulug' namoyondasi Abdulla Avloniy ham bir qator o'zining asar va maqolalarida ona vatanni sevib ardoqlashga faqatgina yoshlar emas barcha qatlamaq vakillarini yakdillikka chorlagan. Bu to'g'risida esa shunday fikirlarni keltirgan: "Vatan... Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar mamlakatini shu kishining vatani deydilar. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq sevadi. Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq sevganimiz kabi, arablar Arabistonlarini – qumlik, issiq cho'llarini, eskimoslar shimol taraflarini – eng sovuq, qor va muzlik yerlarini boshqa yerdan ziyoda sevadilar. Agar sevmasalar edi, havosi yaxshi, tirikchilik oson yerkarda o'z vatanlarini tashlab, ko'chib ketar edilar⁵.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalg' etish, madaniyma'naviysaviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati

⁴ "Jadid ma'rifatparvarlarining miliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materialllari 2016 yil 15 aprel.-T.: "Toshkent islam universiteti" nashiryot-matbaa birlashmasi. 2016. -B. 54- 62-63.

⁵ Abdulla Avloniy Tanlangan asarlari. – T.: "Yoshlar nashiryot uyi" -B. 100-101.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ularga juda yaqin va tushunarli edi. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rinn egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son.
2. M. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq- 2001. -B.108-109.
3. Mingnarov A. Madaniy jarayonlar va ta'lif masalalarining Turkiston milliy matbuotida yoritilishi. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. - B. 119-124.
4. "Jadid ma'rifatparvarlarining miliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materialllari 2016 yil 15 aprel. - T.: "Toshkent islom universiteti" nashiryot-matbaa birlashmasi. 2016. -B. 54- 62-63.
5. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlari. – T.: "Yoshlar nashiryot uyi" -B. 100-101.